



O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TERMINOLOGIK ME'YOR MASALASI

Nabiyeva Munira

Qarshi davlat universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasasi o'qituvchisi

Annotatsiya: O'zbek tiliga o'zlashayotgan terminlarning struktur va grammatik xususiyatlari imlosi masalasida paydo bo'layotgan muammolar va bu boradagi tadqiqotlar. Terminologik tadqiqotlarni tavsifiy bosqichdan tavsiyaviy bosqichga ko'tarish haqida fikr yuritiladi. Terminologiya doir qat'iy qoidalarni belgilashni aniq bir ortologik tizimga solish masalalari ko'rilgan.

Kalit so'zlar: norma, me'yor, termin, terminlarning struktur xususiyatlari, terminologik me'yor, murakkab tarkibli terminlar.

Norma tilning barcha bo'limlari uchun bir xilda daxldor tushunchadir. Lisoniy normalar yuzga kelish davri, shakllanishi, muayyan tartib-qoidalarga solinishi nuqtayi nazaridan farqlanadi. Chunki til ijtimoiy hodisa bo'lganligi sababli insoniyatning ongli aralashuvi natijasida, turli rivojlanish davrida jamiyatning tilga munosabati bilan namoyon bo'ladi. Adabiy tilni boyishi va sayqallanishiga bo'lgan urinishlar tilga ma'lum me'yor, tartib-qoidalarni yuzaga keltiradi. Adabiy til normalarini doimo ma'lum bir qoidaga solish nisbiy hodisadir. Tilning barcha bo'limlari bir xilda qat'iy normaga bo'ysunavermaydi. Tilning grafika, imlo, grammatika sathlari nisbatan ma'lum me'yorlarga bo'ysunadi. Ammo leksikologiya, leksikografiya, terminologiya doir qat'iy qoidalarni belgilash hanuzgacha aniq bir ortologik tizimga ega emas.

Har qanday til normalidir. Har qanday nutq nutqning tiplari, nutqiy uslublar, nutqning shakliy ko'rinishlari normalidir. Umuman milliy til, uning ijtimoiy-vazifaviy (funksional) va yashash ko'rinishlari (adabiy til, shevalar, lahjalar, jargonlar va boshqa) normalidir. Ular mana shu normalariga ko'ra, bir-biridan farqlanadi yoki mushtarak tomonlarga ega bo'ladi. [1]

Bundan ko'rrib turibdiki, til ham nutq ham albatta, ma'lum qonun qoidalarga ega bo'ladi. Tildagi normalarni belgilash, ularni ma'qulligini, maqsadga muvofiqligini aniqlash murakkab masala. Chunki hozirga qadar o'zbek tili normalarining maqsadga muvofiqligi, nutqiy uslub talablari nuqtayi nazaridan mosligi yetarli darajada o'rganilmagan hodisadir.

Terminologiya sohasida ham, umum o'zbek adabiy tilida bo'lgani kabi, adabiy me'yorlar bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, og'zaki va yozma nutq me'yorlarini farqlash masalasini ochilmagan qo'riq deyish



mumkin. Zotan, og‘zaki nutqda yuqorida sanalgan sakkiz uzhvli terminlarni qo‘llashning imkoniy yo‘q va ular qisqartirilgan holda ishlataladi. Davr qisqargan variantlarning struktur va imlo muammolarini tahlil va talqin etish, ularni takomillashtirishga doir jiddiy tadqiqotlarni taqozo etmoqda.

Tilshunoslikning leksikografiya bo‘limi, xususan, terminologiya, jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda doimiy o‘zgarishda, muntazam o‘rganish va tartibga solishni talab etadi. Ijtimoiy taraqqiyot, texnik-texnologik zaruriyat va ehtiyoj fan sohalarining rivojlanishi, yangi fan tarmoq va yo‘nalishlarining vujudga kelishi, shubhasiz, mavjud terminlar sistemasining takomillashuvi, yangi terminlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu esa, o‘z-o‘zidan, tilshunoslikda yangi-yangi muammo, masala va vazifalarning maydonga kelishiga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, til va tafakkurning dialektik yaxlitligi masalasi ham terminologik leksikaning taraqqiyoti natijasida yangi sifat xususiyatlarga ega bo‘la boradi.

Ilm-fan, axborot-kommunikatsion texnologiyalar taraqqiyoti va boshqa sohalar rivoji bilan bog‘liq ravishda tilda leksik sath boyishining ichki va tashqi imkoniyatlari asosida yangi terminlar paydo bo‘lmoqda, katta oqimda xorijiy tillardan terminlar o‘zlashmoqda. Bu esa tilshunoslik oldiga ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarni rasmiy iste’molga kiritish, normativ-huquqiy hujjatlar loyihibaridagi tushuncha va atamalarning turlicha izohlash ehtimolini istisno etadigan tarzda qonun hujjatlarida qabul qilingan ma’nosiga muvofiq yagona shaklda va to‘g‘ri qo‘llanishini ta’minalash, normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarida adabiy til qoidalari va normalariga, shuningdek, yuridik, texnik va boshqa maxsus qoidalarga rioya etilishini ta’minalash, boshqa tillarning qoidalari tufayli kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nomuvofiqliklarni normativ-huquqiy hujjatlar normalariga ziyon yetkazmagan holda tahrir qilish, o‘zbek tiliga kirib kelayotgan yangi atamalarni qonun hujjatlariga joriy etish va amalda qo‘llashning huquqiy muammolarini o‘rganish, ushbu sohadagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashdan [2] iborat muhim ijtimoiy vazifalarni qo‘ydi. Ushbu vazifalar ijrosini muntazam nazorat qilib borish, ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarni iste’molga kiritish, zamonaviy atamalarning o‘zbekona muqobillarini yaratish va bir xilda qo‘llanilishini ta’minalash, geografik va boshqa toponimik obyektlarga qonun hujjatlariga muvofiq nom berilishi borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish va monitoring qilishni qo‘lga qo‘yish maqsadida mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Atamalar komissiyasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. [4]



Ma'lumki, terminologiya sohasining rivojlanishi nafaqat tashqi omillar – diskurs ishtirokchilari, makon va zamon doirasidagi globallashuv, maqsad va vazifalar, yangi nutqiy qoliplar, muloqot madaniyati, nutqiy strategiya va taktika uyg'unligining yangi sifat bosqichiga ko'tarilishi, balki ichki omil – nazariy asoslari A.Grindsted, A.V.Zubov, A.V.Superanskaya, A.I.Podlujniy, A.N.Buliko, B.SHeder, V.M.Leychik, V.P.Danilenko, V.fon Xan, G.A.Sixun, G.Vigand, G.Dits, D.S.Lotte, I.V.Arnold, Y.Vagner, K.Timm, L.A.Kapanadze, L.Xoffmann, R.Baum, S.V.Grinev, S.Vendt, S.Gollin-Kis, S.Gopferix, T.L.Kandelaki, X.Bergenxolts, X.Kalverkemper, X.Kretsenbaxer, X.Shreder kabilar tomonidan turli aspektlarda o'rganilgan til vositalari bilan ifodalanuvchi tushunchaviy apparatning sifat va miqdor jihatidan o'zgarishi bilan ham birday bog'langan. Ayniqsa, terminlarning o'zbek tiliga faqat rus tili orqali kirib kelish tendensiyasi kuchsizlanib, boshqa tillardan, xususan, ingliz tilidan, bevosita termin o'zlashtirish keng tus olayotganligi jarayonga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zbek tilshunosligida va til amaliyotida o'zga tillardan kirib kelayotgan o'zlashmalarni qabul qilishning lingvistik me'yordi ishlab chiqilmagan bo'lib, o'tgan davrda bu me'yor vazifasini o'zbek tili bilan alifbosi bir xil bo'lganligi uchun terminlarning rus tilidagi imlosi bajarar edi. Yangi davrda esa ingliz tili va o'zbek tili alifbosi bir xil bo'lsa-da, imloda ingliz tiliga andoza sifatida ergashilmayotganligi sababli o'zlashma sodda terminlarni ham, murakkab terminlarni ifodalash masalasida ma'lum bir qat'iy qonuniyatlarga asoslangan me'yorlarga kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Demak, aytish mumkinki, o'zbek tiliga o'zlashayotgan terminlarning struktur va grammatik xususiyatlari imlosi masalasida paydo bo'layotgan muammolar bu boradagi tadqiqotlarni yangi sifat bosqichiga, ya'ni terminologik tadqiqotlarni tavsiyiy bosqichdan tavsiyaviy bosqichga ko'tarishni taqozo etmoqda.

Aytiganlardan ma'lum bo'ladiki, terminlarning formal-struktur, yasalish xususiyatlari, ularning so'zlar grammatik guruhlariga munosabati ustidagi tadqiqotlarni kuchaytirmoq lozim. Yana shuni ta'kidlash lozimki, zamonaviy terminlar sirasida sohalar bo'yicha universal turlar shu darajada ko'payib bormoqdaki, ular tarkibi jihatidan nihoyatda turli-tuman. Xorijiy manbalarni o'zlashtirayotgan va shu asosdagi fikrlarini ona tilida bayon etayotgan mutaxassislar terminlarni berishda o'z bilganlaricha ish ko'rishlari bilan birga, turli saytlar, imlo tamoyillari va qoidalari nuqtayi nazaridan mutlaqo nazorat qilinmaydigan ijtimoiy tarmoqlarda terminologik boshboshdoqlikni kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, muammodan chiqishning oson va qulay yo'li sifatida terminlarni, xususan, texnika vositasi, farmakologiya mahsulotlari nomlarini aynan



o'sha til va imlosida berish tanlanmoqda. Professional terminologiyaning ijtimoiy ahamiyati kundan-kunga oshib borayotgani holda, terminologik diskurs, terminologik apparatning leksikografik masalalari o'zbek tilshunosligida oqsayotgan sohalardan bo'lib qolmoqda. Yangidan paydo bo'layotgan sohalarning terminologik boyligi na an'anaviy, na zamonaviy leksikografiyaning to'laqonli manbasiga aylanayotir.

O'zbek tiliga o'zlashayotgan va bunda, ko'p hollarda, kalkalashtirilayotgan terminlarning struktur xususiyatlari sirasida ularning tarkibi masalasi amaliyotda qo'llanishi bilan bog'liq ravishda qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Zamonaviy o'zbek terminologiyasida quyidagilar sohaning asosiy muammolari sifatida namoyon bo'lmoqda:

birinchidan, terminlarni o'zlashtirish va bunda kalkalash muammolari;

ikkinchidan, o'zlashma terminlarning til leksik va grammatik strukturasi va mikrosistemalarida tutgan o'rnni oydinlashtirish;

uchinchidan, polifunksional, hamroh mohiyatli terminlarning leksikografik talqini;

to'rtinchidan, leksikografik talqinlarda ideografik, grammatik, etimologik pometalarni berish;

beshinchidan, o'zbek tilida xorijiy asosli terminlarning yasalishi;

oltinchidan, terminlarning struktur xususiyatlarini o'zbek tilida aks ettirish;

yettinchidan, terminlarning imlosi masalalari. [3]

Tilimizda struktur jihatdan nafaqat bir yoki ko'p uzhvli, balki sintaktik va sintagmatik terminlar uchraydiki, birinchidan, bu sintaktik termin, sintagmatik termin atamalari unchalik ommalashmagan bo'lsa, ikkinchidan, ularning murakkab so'z-terminlardan farqli jihatlari, tashkil etuvchilarning semantik yaxlitlanish jarayoni, sintagmatik va sintaktik terminlarning tushunchaga munosabati masalasi hali jiddiy tadqiq etilishga muhtoj. Shu bilan birga, terminosistemada ko'plab birikmali – sintaktik va sintagmatik terminlar mavjud bo'lsa-da, izohli lug'atlarda asosan so'z-terminlar, terminologik lug'atlarda esa birikmali terminlar ham berilaveradi. Bu esa izohli va terminologik lug'atlarning so'z tanlash tamoyillari farq qilishidan dalolat beradiki, u ham e'tiborli izlanishlarni va ilmiy asoslashlarni taqozo etadi.

Nazarimizda, terminlarning grammatik xususiyatlari haqida gap ketganda, kengaygan terminlarning qisqa yoki ixcham varianti bilan o'rin almashib qo'llanishini e'tiborga olish lozim bo'ladi. Zero, ixcham varianti bilan erkin distributiv aloqada bo'la oladigan terminlar tarkibiy qismlari orasidagi sintaktik



aloqa hali so‘nmagan bo‘ladi va ko‘proq nisbatan yoyiqroq terminlarda uchraydi. Boshqacha aytganda, murakkab (birikmali) termin tarkibidagi uzvlar soni qanchalik oshib borsa, birikmaning sintaktik xususiyati shuncha ortib, leksik (nominativlik) xususiyati barqarorlikdan uzoqlashib boradi. Bu esa termin tarkibidagi so‘zlar ifodalaydigan tushunchalar yaxlitlashmaganligini ko‘rsatadi.

Foydalanolgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бегматов.Э, Маматов.А Адабий норма назарияси (Адабий норманинг типлари) II қисм. Тошкент – 1998
2. Давлат тилини ривожлантириш департаменти тўғрисида низомни тасдиқлаш ҳақида. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 12 декабрдаги 984-сон қарори. <https://lex.uz/docs/4640226>
3. Набиева .М.Ҳ Ўзбек тилида белги англатувчи терминлар тизими, структураси ва лексикографик талқини: Филология фанлари бўйича фалсафа д-ри... дисс. – Тошкент: 2021. – Б. 39.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Атамалар комиссиясининг фаолиятини ташкил қилиш чора-тадбирлари тўғрисида. Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 29 январдаги 40-сон қарори. <https://lex.uz/docs/4717157>